



Bexzot UMRZAQOV,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti
E-mail: bek_dpi@mail.ru

Qo'qon DU dotsenti O'.Yuldoshev taqrizi asosida

VIRTUAL TECHNOLOGIES AS A KEY FACTOR IN THE FORMATION OF MODERN PROFESSIONAL QUALITIES IN FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

Annotation

This article considers the current issue of engaging students in the learning process, effectively organizing problem-based lessons and independent study hours based on traditional teaching methods. Therefore, it is appropriate to conduct teaching of subjects on the basis of modern information technologies. It is justified that the purpose of conducting lessons on the basis of information technologies is to convey the processes related to the subject of the subject in a figurative form and to convey them to students through teaching aids, virtual stands.

ВИРТУАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается актуальная проблема вовлечения учащихся в учебный процесс, эффективной организации проблемных уроков и часов самостоятельной работы на основе традиционных методов обучения. В связи с этим целесообразно осуществлять обучение учебным предметам на основе современных информационных технологий. Обосновано, что целью проведения уроков на основе информационных технологий является образная передача процессов, связанных с предметом предмета, и донесение их до учащихся через учебные пособия, виртуальные стенды.

VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA ZAMONAVIY KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari asosida talabalarni dars jarayoniga qiziqtirish, muammoli o'quv darslari va mustaqil ta'lim soatlarini samarali tashkil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois fanlarni o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Axborot texnologiyalari asosida dars o'tish asosan, o'qitilayotgan fanning mavzusiga tegishli jarayonlarni o'quv qo'llanmalar, virtual stendlar asosida obrazli ko'rinishda ifodalash va talabalarga etkazib berish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Kalit so'zlar: Shaxsni shakllantirish, professional ta'lim, raqamli texnologiyalar, faol pozitsiya.

Kirish. Dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda alohida e'tibor qaratiladi. Chunki hozirgi globalashgan dunyoda keng qamrovli tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislar zarur. Yoshlarni ta'lim olishga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan kasblarini egallashlari uchun umumkasbiy fanlarni o'qitish, mustaqil va ijodiy ishlashlarini samarali tashkil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Professional ta'limning barcha bosqichlarida bo'lajak mutaxassis uchun kasbiy sifatlarni shakllanishi asosiy talab bo'lib qolishi kerak.

Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra, bo'lajak mutaxassislarning o'z ustida ishlash egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda mustaqil qo'llay olish, o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish, o'z sohasi bo'yicha dunyo miqyosidagi yangiliklardan doimo xabardor bo'lish va ulardan o'z faoliyati davomida foydalana olish, innovatsion faoliyat olib borish ko'nikmalari o'quv amaliyotlarida shakllanadi. Respublikamizda jadal rivojlanayotgan yangi professional ta'limning ustuvor yo'nalishlari kasbiy faoliyat usullarini mustaqil tashkil qiladigan ijodkor mutaxassislarni etishtirishni nazarda tutadi. "Professional ta'lim muassasalarida mustaqil dunyoqarashga va fikrlashga ega bo'lgan ma'naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish"[6] dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Professional ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sifati

ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi faolligi va mustaqil ta'limni tashkil etish metodlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun texnologik ta'limni amalga oshirishda o'quvchilarda zamonaviy o'quv-metodik ta'minot bilan mustaqil ishlash rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari texnologik ta'limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish asosida kasbiy malakalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim metodlarini amalga tatbiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazmunidan kelib chiqqan holda hamda keltirilgan nazariyalarga asoslanib o'quv va kasbiy faoliyatda, axborotlashtirishning psixologik oqibatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan xususan, kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash va idrok etish bilan bog'liq

ma'lum mahorat, o'ziga xos harakat, individual aqliy jarayonlardir.

Masalan, bosma matn axborot manbai sifatida tarkibni voqelikdan ajralish tamoyillari asosida qurilgan, u chiziqchilik, izchillik, ob'ektivlik, ratsionallik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, vizual ma'lumotlarning muammoli xususiyati qanchalik baland bo'lsa, talabaning aqliy faoliyatining intensivligi shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar yordamida o'quv mashg'ulotlarini vizuallashtirish qilish materialni yanada intensiv o'zlashtirishga yordam beradi.

Kompyuter «rasmii fikrlashni shaxsiylashtirishga imkon beradi» Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar nafaqat o'rganish vositasi balki, kompyuter o'zining imkoniyatlari bilan alohida ham ajralib turadi, chunki u rasmiy operatsiyalarni o'zlashtirish orqali o'zlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirish uchun ishlatiladi. Bunday konkretlashtirilgan bilimlar rasmiy tafakkur vositalarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha elementlarni o'z ichiga oladi.

Virtual texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, birinchi navbatda talabaning tafakkur qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi, shu bilan birga talaba ijodkorga aylanadi; ikkinchidan

Ta'lim mazmuni yoki o'quv materialini raqamli texnologiyalar yordamida uzatishga kelsak, E.S.Polat, I.B.Robertning operatsion intellekt kontseptsiyasiga ko'ra, har qanday ma'lumot to'rt bosqichdan o'tib, undan keyin shahs tomonidan qabul qilinadi:

- sensorli vosita (emotsional hissiyot);
- ramziy bosqich (sensorli-mantiqiy ma'lumotlarning obrazli katlami);
- mantiqiy bosqich (axborotni diskursiv va mantiqiy tushunish);
- lingvistik bosqich (so'z orqali ma'lumotni ongga joylashtirish - oldingi bosqichlarda ishlangan tasvir).

Mazkur texnologiyalar yordamida olib borilgan didaktik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchi va talaba o'zaro munosabatlarining to'rtta muhim shakllarini ko'rib chiqishni talab qiladi:

- talaba - kompyuter yoki mobil qurilma;
- o'qituvchi - kompyuter yoki mobil qurilma;
- talaba - o'qituvchining kompyuter yoki mobil qurilmasi;

Shuning uchun, raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan o'qitish nazariyasining asosiy masalalaridan biri o'quv jarayonini tashkil etish va ushbu shakllarning o'zaro samarali ta'siri masalasidir. Ko'p o'qituvchilar an'anaviy ta'lim tizimi talabalarning fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishiga shart-sharoit yaratmasligini, ularning ijodiy salohiyatini mustahkamlashini ta'kidlaydi.

Odatda, OTMlarda ta'lim berish jarayonida ko'p o'qituvchilar talabalarga o'z mavzulari bo'yicha iloji boricha ko'proq ma'lumot berishga xarakat qilishadi. Shu bilan birga, uni etkazishning reproduktiv usullari minimal bilim va ijodiy faoliyatni talab qiladi. Bundan tashqari, talaba salbiy fazilatlarini shakllanib qolishiga, o'z kuchiga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga, talabaning harakatlarida bilim olishdan ko'ra ko'proq baho olishga bo'lgan harakat kuchayadi. Natijada, ish beruvchiga o'z sohasini mukammal egallamagan mutaxassisni, professional sohada qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan kadri etishib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, an'anaviy ta'lim jarayonida bir qator klassik ziddiyatlar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha shakllantirish mumkin:

- o'qituvchi faoliyati va talabaning passivligi;

• o'quv dasturi bilim darajasi o'rtacha blgan talabaga mo'ljallangan;

• talaba shaxsiga individual yondashuvning etishmasligi;

• ma'lumotlar mavhum-mantiqiy shaklda taqdim etiladi;

- cheklangan vaqt va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan ziddiyatlar umuman ta'lim jarayoni uchun jiddiy muammo sanaladi. Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishda an'anaviy "o'qituvchi - talaba" o'zaro hamkorlik shakllari o'zgaradi, chunki, avvalo, yangi o'qitish vositasi joriy etiladi, bu jarayonning zarur bo'g'iniga aylanadi (masalan, masofaviy ta'limda bu tizim talaba - kompyuteri/mobil qurilma - o'qituvchi); ikkinchidan, talaba raqamli texnologiya yordamida mashg'ulotning turli xususiyatlari tufayli mashg'ulot ob'ektidan mashg'ulot ishtirokchisiga aylanadi:

- o'qituvchining faol pozitsiyasi;

• kognitiv jarayonning "o'rgatish" toifasidan har qanday mavzuni ongli ravishda va mustaqil ravishda "o'rganish" toifasiga o'tish;

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan xolda shuni ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda texnologik ta'lim fanini o'qitishda virtual texnologiyalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. O'quv materiallardan samarali foydalanish texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

"Virtual borliq" atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jaron Lanier tomonidan o'ylab topilgan.

Jaron Lanierning fikricha « virtual olam — inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Virtual borliq ob'ektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Virtual borliq inson madaniy hayotining barcha bo'g'inlarida foydalanilmoqda. Virtual borliqdan turli sohalarida, ayniqsa ta'limni tashkil etishda ta'limiy vosita sifatida keng foydalanilmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan shuni aytish joizki, bugungi kunda axborotlashgan jamiyatda davr ehtiyojlariga javob bera oladigan raqobatbardoshli mutaxassislarni tayyorlashda virtual texnologiyalar yordamida texnologik ta'lim fanini talabalarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Virtual texnologiyalar yordamida bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarida zamonaviy kasbiy sifatlarni shakllantirish mazmunini takomillashtirish jarayoni ko'pgina afzalliklarga ega. Biroq, shu bilan birga talaba bilimlarni ushbu usul yordamida o'zlashtirishi o'quv materiali hamda olingan axborotni taqdim etishda qo'llaniladigan amaliyotga ham bog'liq. Virtual texnologiyalar yordamida ta'limni tashkil etish jarayonini talabalarga qulaylik yaratiladigan quyidagi onlayn treninglarni misol sifatida keltirishi mumkin:

1.Virtual texnologiyalardan foydalangan holda ta'limni tashkil etish jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro do'stona, ijobiy, ijodiy, ilmiy muhit tashkil etiladi. Bu jarayonda talaba o'zini erkin his etib, mustaqil fikrlash imkoniyati yaratiladi.

2.Mazkur jarayonda talabalar oladigan axborot haqida ma'lumotga ega bo'ladi, jumladan, fan bo'yicha o'quv reja, o'rganishi zarur bo'lgan mavzular ketma-ketligi, o'qituvchi tomonidan fanni o'zlashtirishga oid adabiyotlar, o'qituvchi talabalarning elektron pochta orqali topshiriqlarni berilishi va bajarilishini nazorat qilish texnologiyasi masalan sayt o'rniga elektron ta'lim yordamida etkazish metodi tanlanadi.

3. Asinxron va sinxron faoliyat interaktiv o'qitish usulidan foydalanish, bunda talabalardan aqliy hujum metodi va mavzuni bilish imkoniyati kengayadi. Talabalar internet

yordamida virtual videokurslarni ko'rishi, shuningdek muayyan mavzuni tushunib olish yoki ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini yaratadigan avtonom rejimda to'liq o'quv kurslarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Virtual texnologiyalardan maksimal tarzda unumli foydalanish uchun o'qituvchi va talaba internetdan olinadigan ko'plab resurslardan foydalanishi kerak. Axborotdan foydalana olish imkonini beradigan yuzlab onlayn servislar mavjud, masalan, Udemu, Khan Asademu Vikipediya kabi ta'lim resurslari. Instruktorlar onlayn materiallarining mazmuni va tarkibini boyitishda imkoniyatlardan foydalanishlari yoki talabalarni qo'shimcha veb-resurslarga yo'naltirishlari kerak.

Virtual ta'lim texnologiyalari istalgan joy, kompyuter yoki mobil qurilmaga ulangan internetdan, ya'ni uyda, dam olishda yoki ish o'rtasidagi tanaffusda ta'lim olish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim yo'nalishlarida

texnologik ta'lim fanini o'qitish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda, zero texnologik ta'lim fani talabalarning kelgusidagi kasbiy tayergarliklarini belgilashda o'z mutaxassisliklaridan keyin turuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim yo'nalishlarida talabalar bilan bo'lgan suhbatlar, dars jarayonini kuzatish, mutaxassislikka yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabatlarni tahlil qilish ko'pchilik talabalarda yuqorida qayd etilgan omillarga nisbatan befarqlik, ya'ni texnologik ta'lim fanini kelgusidagi kasbiy faoliyatda tutgan o'rni va rolini yaxshi tasavvur qila olmasliklarini ko'rsatdi. Bundan tashqari birinchi bosqich talabalarining oliy o'quv yurtdagi sharoitga moslashishi (adaptatsiya) davrida ularda o'rganilayotgan texnologik ta'lim faniga nisbatan zarur kasbiy motivatsiyaning shakllantirilmaganligi texnologik ta'lim fani o'rgatish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatish holati ham aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullina O.L. Obshepedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme visshego pedagogicheskogo obrazovaniya: dlya ped. spetsialnostey visshix uchebnix zavedeniy. – 2-izd., pererab. i dop. – M.: Prosveshenie, 1990. – 141 s.;
2. Abduqodirov A.A. va boshq. Sase study uslubi: nazariya, amaliyotva tajriba. T.: "Tafakkur qanoti", 2012. -6 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, Fan nashriyoti, 1975, 71-72 b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-t.Toshkent, 1968, 151b.
5. Avloniy A.Tanlangan asarlar. Ikki jildlik.2-jild. -T.: Ma'naviyat, 1998. –304 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4945840>